



## FORMATION OF TASHKENT REGION AND THE ETHNIC COMPOSITION OF ITS POPULATION

**Xolbek Sulaymanov**

Senior Researcher, Independent Scholar

*“Applied Ethnology” Laboratory, Faculty of History*

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Tashkent region, districts, ethnic composition, nationalities.

**Received:** 01.07.25

**Accepted:** 02.07.25

**Published:** 03.07.25

**Abstract:** The article describes the socio-political and historical processes involved in the formation of Tashkent region. It provides information about many settlements in the area being granted district status since 1926, as well as data on the ethnic composition of the population in the region.

## TOSHKENT VILOYATINING TASHKIL TOPISHI VA AHOLINING ETNIK TARKIBI

**Xolbek Sulaymanov**

*“Amaliy etnologiya” laboratoriyasi*

*Katta ilmiy xodimi, mustaqil izlanuvchi*

*Tarix fakulteti, O‘zbekiston Milliy universiteti*

*Toshkent, O‘zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** Toshkent viloyati, tumanlar, etnik tarkib, millatlar.

**Annotatsiya:** Maqolada Toshkent viloyatining tashkil topishidagi ijtimoiy-siyosiy tarixiy jarayonlar haqida bayon etilgan bo‘lib, 1926 yildan vohadagi ko‘pgina aholi manzilgohlari tuman maqomi berilishi hamda mintaqadagi aholining etnik tarkibi haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

## ОБРАЗОВАНИЕ ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ И ЭТНИЧЕСКИЙ СОСТАВ ЕЁ НАСЕЛЕНИЯ

**Холбек Сулейманов**

*Старший научный сотрудник, независимый исследователь*

*Лаборатория «Прикладная этнология», Исторический факультет*

*Национальный университет Узбекистана*

## О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Ташкентская область, районы, этнический состав, национальности.

**Аннотация:** В статье изложены социально-политические и исторические процессы, связанные с образованием Ташкентской области. Приведена информация о том, что с 1926 года многим населенным пунктам района был присвоен статус района, а также представлены данные об этническом составе населения региона.

## Kirish

XX asrning 20 yil o'rtalari kelib, Sovet hukumati tomonidan o'tkazilgan Markaziy Osiyoda milliy hududiy chegaralanish siyosati qadim-qadimdan tili, dini, tarixi, madaniyati, an'analari bir-biriga juda yaqin va mushtarak qardosh va qondosh xalqlar o'zbeklar, turkmanlar, tojiklar, qozoqlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlarning birodar xalqlarni bir-biridan ajratib tashlash, ularning birlashib davlat tuzishlariga izn bermaslikni maqsad qilingan edi. Tub millat vakillari bu siyosatga qarshi bo'lsalar ham ularning fikrlari e'tiborga olinmadi. Sovet hukumati davlat chegaralarni tabiiy geografik yoki hududda yashovchi xalqlarning joylashuviga qarab emas, balki etnik nizolarni keltirib chiqarish maqsadida belgilab chiqdilar. Milliy chegaralanish natijasida O'zbekiston SSR tashkil etilib, uning tarkibiga Turkiston ASSR dan 9 ta uyezd, 133 tuman va 7 qishloq okrugi; Buxoro respublikasining 9 ta viloyati; Xorazm respublikasining 23 ta tumani kiritilidi[1].

O'zbekiston SSR tashkil etilgan paytda uning hududi 312394 kv. km ni, aholisi 4 mln 447 ming 55 kishini tashkil qilardi. 1926-yil ma'lumotlari bo'yicha, milliy tarkibiga ko'ra aholining 74,2 foizini o'zbeklar, qolganlarini esa boshqa millatlardan iborat edi[2].

O'sha davrda sovet hukumatining markaziy hududlaridan aholining sun'iy tarzda ommaviy olib kelinishi ko'p jihatdan xalq xo'jaligi ehtiyojidan emas, balki ko'proq siyosiy jihatdan amalga oshirilgan edi. Shuning natijasida 1926-yildan to 1940-yilgacha O'zbekiston aholisi yangi kelganlar hisobiga 750 ming kishiga yoki 10% dan ortiqroqqa ko'paydi[3].

Mazkur davrda Toshkent vohasida ham ma'muriy-hududiy tuzulishi boshlanib, tumanlarning chegaralari belgilanadi. Chegaralarni bo'lishida qo'shni davlatlar bilan bahsli taraflari mavjud edi.

1926 yilidan Toshkent vohasida tumanlarni tashkil etish bo'yicha hududlarda chora tadbirlar amalga oshirilib, bir qancha aholi manzillariga tuman maqomi berildi.

Vohada o'ziga xos o'rniga ega bo'lgan, go'zal tabiati bilan sayyohlarni jalb qilgan tumanlardan biri Bo'stonliq dastlab, Qo'qon xonligi tarkibida bo'lgan. Rossiya imperiyasi tomonidan Qo'qon xonligi bosib olingandan so'ng uning hududlari yangi tuzilgan Turkiston

general-gubernatorligining Sirdaryo viloyati tarkibiga kiritiladi. 1924-yil oktyabrda Sovet hukumati tomonidan o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanishi natijasida Bo'stonliq tumani hududi RSFSR tarkibidagi Qirg'iz Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasiga o'tkazilgan. 1936-yilda tugatilgan Qirg'iz ASSR o'rnida Qozog'iston SSR tashkil topgandan so'ng mazkur hudud "Bostandiq" tumani nomi bilan Janubiy Qozog'iston viloyati tarkibiga o'tkazilgan. 1956-yil 13-fevralda tuman [Qozog'iston SSR] tarkibidan O'zbekiston SSRning Toshkent viloyati tarkibiga o'tkaziladi va nomi Bo'stonliq tumani deb o'zgartiriladi. 1962-yil 24-dekabrda tuman Yuqorichirchiq tumani tarkibiga kiritilgan, 1968-yil 25-dekabrda esa yana Bo'stonliq tumaniga aylantirilgan[14]. Tuman aholisining 60 foizdan ortig'i qishloqlarda istiqomat qiladi. Tumanda o'zbeklar aholining 45,1 foizini tashkil etgan. Qolgan millatlar esa qozoqlar(26,5%), tojiklar (17,0%), ruslar (7,5%), shuningdek, ukrainlar, tatarlar, koreyslar va boshqa millatlarning diasporalari ham istiqomat qilgan bo'lib, ular aholining deyarli 4% ni tashkil qilishgan[4].

Toshkent vohasining olis hududlaridan biri Bekobod tumani 1926-yil 29-sentabr kuni tashkil etilgan bo'lib, 1962-yil 24-dekabrda mazkur hudud Sirdaryo viloyati Yangiyer tumaniga qo'shib yuborilgan, 1963-yil 17-aprelda qayta tuzilgan. Tuman shimolida Bo'ka tumani, g'arbda Sirdaryo viloyati, sharq va janubida Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh[5]. Aholisi, asosan o'zbeklar, shuningdek tatar, tojik va boshqa millat vakillaridan iborat.

Toshkent viloyatining markaziy qismida joylashgan O'rtachirchiq tumani 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Shimoliy sharqda Yuqori Chirchiq tumani, sharqda Ohangaron tumani, shimolida Toshkent shahri va Zangiota tumani, g'arbda Quyichirchiq tumani, janubdada Oqqo'rg'on tumani va Piskent tumanlari bilan chegaradosh[5]. Aholisining asosiy qismini O'zbeklar tashkil etadi. Shuningdek, tumanda ko'pgina qozoqlar, tatarlar, ruslar, koreyslar, tojiklar, qirg'izlar va boshqalar millat vakillari ham yashaydi.

Parkent tumani 1926-yil sentabrda tashkil etilgan[6] bo'lib, shimol, sharq va janubida Bo'stonliq, Ohangaron, g'arbdan Yuqori Chirchiq va janub-g'arbdan O'rta Chirchiq tumanlari bilan chegaradosh[7]. Aholisi, asosan, o'zbeklar (79,3%), shuningdek, tojik (13,8%), qozoq (4,5%), qirg'iz (2%) va boshqa millat vakillari (0,4%) ham yashaydi.

Piskent tumani 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan[8]. Shimoliy va shimoli-sharqdan Ohangaron va O'rta Chirchuiq, g'arbdan Oqqo'rg'on, janubi-g'arbdan Bo'ka tumanlari, jan.dan Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh[9]. Aholisi, asosan, o'zbeklar, shuningdek, tojik, tatar, rus va boshqa millat vakillari ham yashaydi.

Quyichirchiq tumani 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. 1962-yil dekabrda Oqqo'rg'on tumaniga qo'shib yuborilgan. 1973-yil dekabrda qayta tashkil qilingan, 1978-1991 yillarda G'alaba tumani deb atalgan. Shimolida Chinoz va Yangiyo'l, sharqda O'rta Chirchiq, janubida

Oqqo'rg'on tumanlari, g'arbdan Sirdaryo orqali Sirdaryo viloyati bilan chegaradosh[10] Aholisi, asosan, qozoqlar, o'zbeklar, shuningdek, koreys, rus, tatar va boshqa millat vakillari ham yashaydi.

Viloyatning janubiy g'arbida Yangiyo'l tumani 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan[11]. G'arb va shimoliy g'arbda Qozog'istonning Janubiy Qozog'iston viloyati (hozirgi Turkiston viloyati), shimoliy va shimoliy sharqda Zangiota tumani, janubiy sharqda Quyi Chirchiq tumani, janubiy g'arbda Chinoz tumanlari bilan chegaradosh[12]. Aholisi, asosan, o'zbeklar, shuningdek, rus, qozoq, tatar va boshqa millat vakillaridan iborat.

Yuqori Chirchiq tumani 1926-yil 29-sentyabrda tashkil etilgan[13] bo'lib, 1959-yilda Parkent tumani, 1962-yilda Bo'stonliq tumani qo'shildi. 1964-yildan Bo'stonliq, 1979-yildan Parkent tumani ajralib alohida tumanga aylandi[14]. Aholisi asosan, o'zbeklar, shuningdek, qozoqlar, koreyslar, ruslar, tatarlar va boshqalar millat vakillari ham yashaydi.

Toshkent Chorvoq temir yo'ldagi stansiya va avtomobil yo'llari chorrahasida Chirchiq shahri 1932-yilda daryo bo'yidagi Qirg'izquloq, Qipchoq, Niyozbek qishloqlari o'rnida yirik elektrkimyo qurilishi munosabati bilan vujudga kelgan. Yangi sanoat korxonalari qurilishi bilan aholi soni ham tez o'sdi. 1939-yili 15 ming kishi, 1959-yili 65 ming kishi, 1970-yili 107,4 ming kishidan iborat bo'lgan[15].

1933-yil 1-dekabrda Qibray tumani tashkil etilgan. 1962-yil 24-dekabrda Kalinin (hozirgi Zangiota) tumani bilan birlashtirildi. 1964-yil 31-dekabrda qaytadan tuzildi. 1933 - 1991 yillari Orjonikidze tumani deb yuritilgan. Janubiy g'arbdan Toshkent shahri, janubidan Yuqori Chirchiq, sharqdan Bo'stonliq, g'arbdan Toshkent tumanlari, shimolidan Qozog'iston Respublikasi bilan chegaradosh hisoblanadi[16]. Aholisi, asosan, o'zbeklar; shuningdek, qozoq, rus, tojik, tatar va boshqalar millatlar ham yashaydi.

Zangiota tumani 1933-yil 1-dekabrda tashkil etilgan (1992-yil maygacha Kalinin tumani deb atalgan). Hududi Toshkent shaharining g'arbi va janubiga tutash. Shimolida Toshkent tumani, g'arbda Qozog'iston Respublikasi, sharqda Qibray, O'rta Chirchiq, Yuqori Chirchiq tumanlari, janubida Yangiyo'l tumani bilan chegaradosh[17]. Aholisi, asosan, o'zbeklar, shuningdek, qozoq, tatar, tojik, koreys va boshqa 20 dan ortiq millat vakillari yashaydi.

Chinoz tumani 1935-yil 9-fevralda tashkil etilgan. 1962-yil 24-dekabrda Yangiyo'l tumaniga qo'shilgan. 1973-yil 12-aprelda qayta tuzilgan. Shimoliy va shimoli sharqdan Yangiyo'l, sharq va janubi sharqdan Quyi Chirchiq tumanlari, janub va g'arbdan Sirdaryo, shimoli g'arbdan Qozog'iston Respublikasi bilan chegaradosh[18] Aholisi, asosan, qozoqlar, o'zbeklar, shuningdek, tojik, rus va boshqa millat vakillari ham yashaydi.

Oqqo'rg'on tumani 1935-yil 28-iyulda tashkil qilingan. Shimoliy va shimoli-g'arbda Quyi Chirchiq tumani, g'arb va janubi-g'arbda Sirdaryo viloyati, shimoli-sharqda O'rta Chirchiq tumani, janub va janubi-sharqda Bo'ka tumani, sharqda Piskent tumani bilan chegaradosh[19].

Aholisi, asosan, o'zbeklar (80,9%), shuningdek, qozoq (8,3%), rus (2,8%), tatar (1,09%), tojik (1,6%) koreys (1,4%), ukrain, nemis, qirg'iz, uyg'ur, ozarbayjon, belorus, turkman, yahudiy va boshqa millat vakillari (3,1%) ham yashaydi[20].

1938-yil 15-yanvarda Toshkent viloyati tashkil topib, hududiy chegaralari shimoliy va shimoli-g'arbdan Qozog'iston Respublikasi, shimoli-sharqdan Qirg'iziston Respublikasi, sharqdan Namangan viloyati, janubidan Tojikiston Respublikasi, janubi-g'arbdan Sirdaryo viloyati bilan belgilanadi[21]. Toshkent viloyati etnik tarkibida o'zbeklar (60,9 %), shuningdek, rus (8,1 %), qozoq (14,3 %), tatar (2,5 %), tojik (5,0 %), koreys (2,8 %), ukrain va boshqa millat (turk, qirg'iz, uyg'ur, nemis va boshqa) vakillaridan iborat edi.

1940-yil 29-sentyabrda Jigariston qishlog'ida (Jartepa, Turk, Teshiktosh, Qo'yxona va Jigariston qishloqlari negizida) 300 ga yaqin aholi istiqomat qiladigan Angrenshaxtaqurilish ishchi shaharchasi tashkil topdi. 1941-yil 2-mayda O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumi Farmon chiqaradi. Mazkur farmonga ko'ra "Angrenshaxtaqurilish" qurilish davridagi aholi punkti ishchilar shaharchasi toifasiga kiritiladi va unga "Angrenshaxtaqurilish" ishchilar shaharchasi nomi beriladi. Markazi Teshiktosh qishlog'ida joylashgan Angrenshaxtaqurilish qoshida qishloq kengashi tashkil etilib, 1946-yil 13-iyunda O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumining Farmoni bilan Angrenshaxtaqurilish ishchilar shaharchasi Angren shahriga aylantiriladi[22].

Viloyatning jang'arbiy qismida Bo'ka tumani joylashgan. 1943-yil 18-mayda tashkil etilgan. Shimoli g'arbda Oqqo'rg'on, shimoli sharqda Piskent, janubda Bekobod tumanlari bilan, g'arbda Sirdaryo viloyatining Oqoltin va Guliston tumanlari, sharqda Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh. Aholisi, asosan o'zbeklar, shuningdek tojik, qozoq, qirg'iz, rus, tatar, turk va boshqa millat vakillaridan iborat[23].

Ohangaron shahri Ohangaron qishlog'i o'rnida paydo bo'lgan, hududda asosan o'zbeklar va tojiklar yashagan. Rasmiy ravishda Ohangaron aholi manziliga shahar maqomini 1966-yilda berilgan edi[24]. Bu hududda ham turfa millatlar istiqomat qiladi.

**Xulosa:** Toshkent vohasida 1926 yildagi aholi manzillarni tumanlanlashtirish jarayonlari uning geografik chegaralari va aholi demografiyasini o'zgarishiga ham sabab bo'ldi. Shahar va tumanlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichlari turfa millatlarni bu hududlarda yashab qolishiga asosiy omillaridan edi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.Q.Usmonov,M.Sodiqov. O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). T.Sharq nashriyoti.2010.80-b.
2. Q.Usmonov,M.Sodiqov, S.Burhonova. O'zbekiston tarixi. T.Moliya-iqtisod nashriyoti.2016.263-b.

3. Муртазаева Р. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик. Т.-Университет.2007.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси 12 жилд. Т. 2006. 670-б.
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси 12 жилд. Т. 2006. 674-б.
6. Тошкент вилоятини районларга бўлиш: [Тошкент вилояти 11 районга бўлинган Шаҳар атрофи райони Янгийўл, Қуйи Чирчиқ, Ўрта Чирчиқ, Юқори Чирчиқ, Паркент, Оҳонгарон, Пискент, Мирзачўл, Бекобод ва Савад районлари] // Қизил Ўзбекистон.-1926.-18 июль.
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси 12 жилд. Т. 2006. 678-б.
8. Тошкент вилоятини районларга бўлиш: [Тошкент вилояти 11 районга бўлинган Шаҳар атрофи райони Янгийўл, Қуйи Чирчиқ, Ўрта Чирчиқ, Юқори Чирчиқ, Паркент, Оҳонгарон, Пискент, Мирзачўл, Бекобод ва Савад районлари] // Қизил Ўзбекистон.-1926.-18 июль.
9. Ўзбекистон миллий энциклопедияси 12 жилд. Т. 2006. 676-б.
10. Ўзбекистон миллий энциклопедияси 12 жилд. Т. 2006. 676-б.
11. Тошкент вилоятини районларга бўлиш: [Тошкент вилояти 11 районга бўлинган Шаҳар атрофи райони Янгийўл, Қуйи Чирчиқ, Ўрта Чирчиқ, Юқори Чирчиқ, Паркент, Оҳонгарон, Пискент, Мирзачўл, Бекобод ва Савад районлари] // Қизил Ўзбекистон.-1926.-18 июль.
12. Ўзбекистон миллий энциклопедияси 12 жилд. Т. 2006. 678-б.
13. Тошкент вилоятини районларга бўлиш: Қизил Ўзбекистон.-1926.-18 июль.
14. Ўзбекистон миллий энциклопедияси 12 жилд. Т. 2006. 678-б.
15. Ўзбекистон миллий энциклопедияси 12 жилд. Т. 2006. 674-б.
16. Ўзбекистон миллий энциклопедияси 12 жилд. Т. 2006. 679-б.
17. Ўзбекистон миллий энциклопедияси 12 жилд. Т. 2006. 676-б.
18. Ўзбекистон миллий энциклопедияси 12 жилд. Т. 2006. 677-б.
19. Ўзбекистон миллий энциклопедияси 12 жилд. Т. 2006. 675-б.
20. Тошкент вилояти статистика бошқармасининг 2024 йил 1 январ ҳолатига маълумоти.
21. Ўзбекистон миллий энциклопедияси 12 жилд. Т. 2006. 670-б.
22. Панфилова Т.С. Гапоненко Н.И. Микрофлора бассейна реки Ангрен. Ташкент Издательство академии наук Узбекской ССР.1963. с.7
23. Ўзбекистон миллий энциклопедияси 12 жилд. Т. 2006. 674-б.
24. Ўзбекистон миллий энциклопедияси 12 жилд. Т. 2006. 675-б.